



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 40 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
Bahromova Muhayyo Imomqul qizi	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
Azimov I. T., Daminova F. A.	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
Abdunazarov Bobir Normurodovich	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
Jumayeva Ra'no To'ychi qizi	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri.....	36
Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna	

OILA VA MAKTAB INTEGRATSIYASINING SHAXS KAMOLOTIGA TA'SIRI

Rasulova Dildora Shuhratovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti

Raxmatova Zulxumor Alimovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda yosh avlod tarbiyasida oila va ta'lim muassasalari hamkorligining ahamiyati, ularning shaxs rivojlanishidagi o'rni hamda zamonaviy ijtimoiy muhitdagi dolzarb muammolar yoritilgan. Tadqiqot jarayonida tahliliy, qiyosiy-tahliliy, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, oila va maktabning samarali hamkorligi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, ta'lim motivatsiyasi hamda psixologik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimi va oilaviy tarbiya jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: oila, maktab, integratsiya, shaxs kamoloti, tarbiya, pedagogik hamkorlik, ijtimoiylashuv, ma'naviy rivojlantirish, psixologik muhit, ta'lim motivatsiyasi, oilaviy tarbiya, pedagogika, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy muhit, kommunikativ hamkorlik.

Abstract: This article analyzes the influence of family and school integration on personality development from socio-pedagogical and psychological perspectives. The study highlights the importance of cooperation between family and educational institutions in the upbringing of the younger generation, their role in personality formation, and current problems of the modern social environment. Analytical, comparative-analytical, observational, and generalization methods were applied during the research process. The findings revealed that effective collaboration between family and school positively affects students' moral development, learning motivation, and psychological stability. In addition, the article provides scientific and practical recommendations aimed at eliminating existing problems. The results of the study are significant for improving the educational system and family upbringing practices.

Key words: family, school, integration, personality development, upbringing, pedagogical cooperation, socialization, moral development, psychological environment, learning motivation, family education, pedagogy, youth upbringing, social environment, communicative interaction.

Аннотация: В данной статье социально-педагогически и психологически анализируется влияние интеграции семьи и школы на развитие личности. В исследовании раскрывается значение сотрудничества семьи и образовательных учреждений в воспитании молодого поколения, их роль в формировании личности, а также актуальные проблемы современного социального пространства. В процессе исследования были использованы аналитический, сравнительно-аналитический, наблюдательный и обобщающий методы. Результаты показали, что эффективное взаимодействие семьи и школы положительно влияет на духовно-нравственное развитие учащихся, учебную мотивацию и психологическую устойчивость. Также в статье разработаны научно-практические рекомендации по устранению существующих проблем. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования системы образования и семейного воспитания.

Ключевые слова: семья, школа, интеграция, развитие личности, воспитание, педагогическое сотрудничество, социализация, духовное развитие, психологическая среда, учебная мотивация, семейное воспитание, педагогика, воспитание молодежи, социальная среда, коммуникативное взаимодействие.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shaxs tarbiyasida oila va maktab eng muhim ijtimoiy institutlar hisoblanib, ularning o'zaro hamkorligi bolaning intellektual, ma'naviy hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda oila va maktab o'rtasidagi tarbiyaviy uyg'unlikning sustligi yoshlar tarbiyasida turli muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ta'lim tizimining asosiy maqsadi yosh avlodni har tomonlama barkamol



shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat^[1]. Shu sababli oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur muammo bo'yicha L.S. Vygotskiy, A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy kabi xorijiy olimlar hamda M. Davletshin, E. G'oziyev, V. Karimova singari mahalliy tadqiqotchilar tomonidan shaxs tarbiyasi va ijtimoiy muhitning ta'siri keng yoritilgan. Biroq zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida oila va maktab integratsiyasining shaxs rivojlanishiga ta'siri yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning maqsadi - oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'sirini ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida oila va maktab hamkorligining nazariy asoslarini o'rganish, uning shaxs rivojlanishidagi o'rnini aniqlash hamda samarali hamkorlik usullarini ishlab chiqish belgilandi.

Tadqiqot obyekti sifatida oila va maktab hamkorligi jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri hisoblanadi. Maqolada tahliliy, qiyosiy-tahliliy, kuzatish va ilmiy manbalarni o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda zamonaviy ijtimoiy muhit sharoitida oila va maktab integratsiyasining shaxs rivojlanishiga ta'siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning samarali hamkorligiga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shaxs kamolotida oila va maktabning o'rni masalasi pedagogika, psixologiya hamda sotsiologiya fanlarida uzoq yillardan buyon dolzarb ilmiy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda. Oilada ota-onalar farzand tarbiyasi va uning ma'naviy kamoloti uchun mas'ul hisoblanadi^[2].

Ayniqsa, bolaning ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va shaxs sifatida shakllanishida oilaviy muhit hamda ta'lim muassasasining o'zaro integratsiyasi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Oila va maktab hamkorligi yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi^[3]. Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik o'quvchilarning nafaqat ta'limiy muvaffaqiyatiga, balki ularning psixologik barqarorligi, kommunikativ kompetensiyasi va ijtimoiy moslashuviga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida L.S. Vygotskiy shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi o'ringa ega ekanligini ta'kidlab, bolaning psixik rivojlanishi jamiyat va tarbiya bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan^[4]. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bola rivojida kattalar va ta'lim muhitining ahamiyatini ochib beradi.

A.S. Makarenko oilaviy va jamoaviy tarbiyaning uyg'unligi shaxsni shakllantirishning asosiy omili ekanligini ko'rsatib, tarbiya jarayonida ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi muhimligini qayd etgan.

V.A. Suxomlinskiy esa maktab va oilaning yagona maqsad asosida faoliyat olib borishi bolaning ma'naviy barkamolligini ta'minlashini ta'kidlagan.

Amerikalik pedagog va faylasuf John Dewey ta'limni ijtimoiy tajribani uzatish jarayoni sifatida baholab, bola rivojlanishida amaliy faoliyat va ijtimoiy muhitning ahamiyatini ilmiy asoslagan. Unga ko'ra, ta'lim samaradorligi faqat maktab bilan chegaralanib qolmay, oilaviy muhit bilan integratsiyada namoyon bo'ladi. Shuningdek, U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasida ham shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi mikro muhit sifatida oila va maktabning o'zaro bog'liqligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Olimning fikricha, bolaning psixologik rivojlanishi bir-biri bilan aloqador bo'lgan ijtimoiy tizimlar ta'siri ostida shakllanadi.

Mahalliy olimlardan M. Davletshin, E. G'oziyev, V. Karimova, G'. Shoumarov, R. Sunnatova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan oila psixologiyasi, tarbiya jarayoni hamda yoshlar ijtimoiylashuvi masalalari keng yoritilgan.

Xususan, E. G'oziyev shaxs shakllanishida oiladagi psixologik muhit va tarbiyaviy munosabatlarning ahamiyatini asoslab bergan.

V. Karimova oilaviy qadriyatlar va ota-onalarning pedagogik madaniyati farzand tarbiyasida muhim o'rin tutishini ta'kidlagan.

G'. Shoumarov esa yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va ma'naviy rivojlanishida oilaviy munosabatlarning psixologik jihatlarini tahlil qilgan.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va virtual muhitning keng tarqalishi oila va maktab integratsiyasi masalasiga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri kuchayib borayotgan bir davrda ota-onalar hamda pedagoglarning hamkorligi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy tadqiqotlarda oilaviy nazorat, pedagogik hamkorlik va ma'naviy profilaktika masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq mavjud ilmiy ishlarda oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri kompleks ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida yetarlicha tadqiq etilmaganligi kuzatiladi.

Mazkur tadqiqotda tizimli, kompleks va qiyosiy metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida oila va maktab integratsiyasi bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida tahlil qilindi. Shaxs kamoloti esa ma'naviy, psixologik, axloqiy hamda ijtimoiy rivojlanishning yaxlit jarayoni sifatida baholandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- 1. Tahliliy metod** - mavzu yuzasidan mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish hamda umumlashtirishda qo'llanildi;
- 2. Qiyosiy-tahliliy metod** - turli ilmiy yondashuvlar va nazariy qarashlarni o'zaro solishtirish orqali oila va maktab integratsiyasining o'ziga xos jihatlarini aniqlashda foydalanildi;
- 3. Kuzatish metodi** - ta'lim jarayonida ota-onalar va pedagoglar hamkorligining amaliy holatini tahlil qilishda qo'llanildi;
- 4. Pedagogik umumlashtirish metodi** - ilg'or tajribalarni tizimlashtirish hamda ilmiy xulosalar chiqarishda xizmat qildi;
- 5. Sistemali yondashuv** - oila, maktab va shaxs o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaxlit tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning obyekti sifatida oila va maktab hamkorligi jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ko'rsatadigan ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, ijtimoiylashuv nazariyasi, ekologik tizimlar nazariyasi hamda zamonaviy pedagogik integratsiya yondashuvlari tashkil etdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Oila kodeksi", yoshlar tarbiyasi va ma'naviy rivojlanishiga oid davlat dasturlari ham metodologik manba sifatida xizmat qildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlash bilan birga, olingan natijalarning ishonchligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi. Natijada oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotidagi o'rni ham nazariy, ham amaliy jihatdan tizimli ravishda yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, ta'limga bo'lgan motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi hamda psixologik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, ushbu ikki muhim ijtimoiy institut o'rtasidagi uzilish yoki pedagogik yondashuvlarning nomuvofiqligi bola rivojlanishida turli muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Tahlillar davomida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida oiladagi psixologik muhit, ota-onalarning pedagogik madaniyati, maktabdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifati hamda pedagog va ota-onalar o'rtasidagi muntazam hamkorlik ajratib ko'rsatildi. Ayniqsa, ota-onalarning farzand ta'limiga bevosita qiziqishi va maktab bilan doimiy aloqada bo'lishi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi hamda ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi shartli ko'rsatkichlar tahlil qilindi:

Shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar	Oila va maktab hamkorligi muntazam va samarali bo'lgan holat	Oila va maktab hamkorligi sust bo'lgan holat
Ta'lim motivatsiyasi	Yuqori	Past
Ijtimoiy faollik	Faol	Sust
Psixologik barqarorlik	Barqaror	Beqaror
Intizom va mas'uliyat	Yaxshi shakllangan	Yetarli emas
Ma'naviy-axloqiy rivojlanish	Ijobiy	Nisbatan sust

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, oila va maktab integratsiyasi yuqori bo'lgan holatlarda o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishi samaraliroq kechadi. Bunday o'quvchilarda mas'uliyat hissi, jamoa bilan ishlash ko'nikmasi, mustaqil fikrlash va ma'naviy qadriyatlarga hurmat darajasi yuqori kuzatiladi.

Tahlillar davomida zamonaviy raqamli muhitning yoshlar tarbiyasiga ta'siri ham o'rganildi. Aniqlanishicha, internet va ijtimoiy tarmoqlarning nazoratsiz qo'llanishi ayrim hollarda o'quvchilarda agressivlik, virtual qaramlik, muloqot muammolari hamda ma'naviy qadriyatlarga befarqlikni shakllantirmoqda. Bunday holatlarda oila va



maktabning hamkorlikdagi nazorati hamda ma'naviy-profilaktik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning yagona tarbiyaviy pozitsiyada faoliyat olib borishi salbiy omillarning oldini olishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Olingan natijalar xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari bilan hamohang ekanligi kuzatildi. Jumladan, L.S. Vygotskiyning ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishidagi o'рни haqidagi nazariyasi hamda Bronfenbrennerning ekologik tizimlar konsepsiyasi tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Shuningdek, mahalliy olimlarning oilaviy tarbiya va pedagogik hamkorlikka oid ilmiy qarashlari ham olingan natijalarni tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida quyidagi muammolar ham aniqlandi:

- ayrim ota-onalarning pedagogik savodxonligi yetarli emasligi;
 - maktab va oila o'rtasidagi muntazam muloqotning sustligi;
 - raqamli texnologiyalar ta'sirining yetarlicha nazorat qilinmasligi;
 - tarbiyaviy faoliyatda yagona tizimli yondashuvning shakllanmaganligi.
- Mazkur muammolar asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:
- ota-onalar uchun pedagogik va psixologik treninglarni tashkil etish;
 - maktablarda "oilam-maktab hamkorligi" dasturlarini keng joriy qilish;
 - raqamli xavfsizlik va media madaniyat bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish;
 - pedagog va ota-onalar o'rtasida muntazam diagnostik hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda oila va maktab integratsiyasi shaxs kamolotining muhim ijtimoiy-psixologik omili sifatida kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy raqamli muhit sharoitida oila va maktab hamkorligining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ochib berildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ta'lim muassasalari, pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi. Mazkur natijalardan yoshlar tarbiyasi, oilaviy pedagogika va shaxs rivojlanishiga oid ilmiy-amaliy faoliyatda foydalanish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot davomida oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oila va maktabning o'zaro hamkorligi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, ta'lim motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va psixologik barqarorligini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning yagona tarbiyaviy yondashuv asosida faoliyat olib borishi shaxsning barkamol rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar asosida ayrim muammolar, jumladan ota-onalarning pedagogik savodxonligi yetarli emasligi, maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikning sustligi hamda raqamli muhitning nazoratsiz ta'siri mavjudligi aniqlandi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida ota-onalar uchun pedagogik treninglar tashkil etish, "oilam-maktab hamkorligi" dasturlarini kengaytirish, media madaniyat va raqamli xavfsizlik bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish tavsiya etildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, unda oila va maktab integratsiyasining shaxs rivojlanishidagi o'рни zamonaviy yondashuvlar asosida tizimli ravishda yoritildi. Amaliy ahamiyati esa ta'lim muassasalari, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida yoshlar tarbiyasi, oilaviy pedagogika hamda shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga oid ilmiy izlanishlarni yanada takomillashtirishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent: O'zbekiston, 2020. - 45 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2019. - 128 b.
3. Sunnatova R.I. Yoshlar ijtimoiylashuvi va oilaviy munosabatlar psixologiyasi / Pedagogik ta'lim. - Toshkent, 2021. - №3. 45-51 b.
4. Выготский Л.С. Психология развития человека. - М.: Смысл; Эксмо, 2005. - 1136 с.
5. Макаренко А.С. Педагогическая поэма. - М.: Просвещение, 1987. - 512 с.
6. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. - 184 b.
7. Shoumarov G'B. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2000. - 296 b.
8. Ismoilov A. Zamonaviy ta'lim muhitida oila va maktab hamkorligi/Xalq ta'limi. - Toshkent, 2022. - №5. -22-28 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti. Yoshlar tarbiyasi va ma'naviy muhitga oid tahliliy ma'lumotlar. - Toshkent, 2023. - URL: ijtimoiy tadqiqotlar instituti rasmiy sayti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.